

XORAZM VILOYATIDA SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

2026-yil yanvar-mart oylari uchun


- I. Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Xorazm viloyatida sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2026-yilning 1- aprel holatiga ko'ra, viloyatda 3 802 ta sanoat korxonasi faoliyat yuritib kelmoqda, shundan 690 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 18,1 %) Urganch shahriga, 455 tasi (12,0 %) Urganch tumaniga, 422 tasi (11,1 %) Xonqa tumaniga, 343 tasi (9,0 %) Qo'shko'pir tumaniga va 266 tasi (7,0 %) Shovot tumaniga to'g'ri keladi.

Viloyatda 2026- yilning yanvar-mart oylarida 303 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil qilingan bo'lib, shularning 46 tasi Urganch tumaniga, 36 tasi Urganch shahriga, 30 tasi Xonqa tumaniga, 30 tasi Shovot tumaniga to'g'ri keladi.

Korxonalar soni 1-aprel holatiga ko'ra



Xorazm viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2026-yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 8 229,4 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,1 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Xorazm viloyati	8 229,4	108,1
Urganch shahri	1 264,6	109,2
Xiva shahri	120,4	110,2
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot tumani	151,9	108,5
Gurlan tumani	167,4	112,7
Qo'shko'pir tumani	300,4	113,4
Urganch tumani	540,2	112,6
Hazorasp tumani	260,0	109,2
Tuproqqal'a tumani	2 969,6	96,6
Xonqa tumani	470,9	109,4
Xiva tumani	191,9	106,2
Shovot tumani	334,5	105,2
Yangiariq tumani	293,5	106,8
Yangibozor tumani	261,7	110,6

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Tuproqqal'a tumanida (47 936,5 ming so'm), Urganch shahrida (8 012,7 ming so'm) o'rtacha viloyat ko'rsatkichidan (3 971,5 ming so'm) sezilarli darajada yuqori bo'lgan.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 106,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija Qo'shko'pir tumanida (111,5 %), Gurlan tumanida (110,8 %), Urganch tumanida (109,9 %), Yangibozor tumanida (108,9 %) va Xiva shahrida (108,5 %) qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yanvar-mart oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 7 764,0 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 94,3 % ni tashkil etgani holda, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 0,7 mlrd so'm (0,01 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 404,4 mlrd so'm (4,9 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda 60,3 mlrd so'm (0,7 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi 2026-yilning yanvar-mart oylarida



**Yirik sanoat korxonalarini tomonidan
ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2026-yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 37 418,2 tonna paxta tolasi (2025-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 46,7 % ga ko'paygan), 1 731,3 tonna o'simlik yog'i (22,1 % ga ko'paygan), 6 795,6 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (53,2 % ga ko'paygan) hamda 21 503 dona yengil avtomobil (maxsus yengil avtomobillardan tashqari) (4,0 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar- mart*	2025-yil yanvar- mart*	2026-yil yanvar- mart
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillardan tashqari), dona	18 996	22 409	21 503
Maxsus yengil avtomobillar, dona	6 144	7 204	11 093
Paxta tolasi, t	32 159,7	28 215,4	37 418,2
Shakar, t	23 880,2	40 914,2	-
O'simlik yog'i, t	1 234,5	1 417,9	1 731,3
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t	11 904,9	4 436,5	6 795,6
Paxta chigiti, t	49 679,9	45 520,0	57 345,1
Paxtadan yigirilgan ip, t	8 403,8	14 199,4	45 453,5

*2024-2025-yillarning yanvar-mart oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,7 % (2025-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 87,8 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,6 % (2025-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 122,4 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi



Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,04 % ni (2025-yilning yanvar-mart oylarida 0,04 %), oʻrta-yuqori texnologiyali – 37,4 % (37,6 %), oʻrta-quyi texnologiyali – 4,7 % (5,2 %), quyi texnologiyali 52,2 % (52,5 %) ni tashkil etgan.



Xorazm viloyatida yirik korxonalar tomonidan yengil avtomobillar ishlab chiqarish, yanvar-mart oylarida

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2026-yilning yanvar-mart oylarida 21 503 dona “ Damas ” (oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 4,0 % ga kamaygan), 11 093 dona maxsus yengil avtomobillari (54,0 ga oshgan) ishlab chiqarildi.

Xorazm viloyatida yirik korxonalar tomonidan
ishlab chiqarilgan yengil avtomobillar, donada
yanvar-mart oylarida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026-yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 73,6 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 112,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-mart*	2025-yil yanvar-mart*	2026-yil yanvar-mart
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	313,9	351,7	262,3
<i>shundan:</i>			
yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)	313,9	351,7	262,3
kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlariga asosan)	0	0	0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	52,0	69,2	77,9

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


2025-yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 2,0 % ga ko'payganligi, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 50,6 % ga kamayganligi, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 18,3 % ga oshganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-mart*	2025-yil yanvar-mart*	2026-yil yanvar-mart
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	2 602 609,0	2 869 450,0	1 416 229,0
Tabiiy suv;suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, ming so'm	35 337 917,0	45 917 061,0	46 821 164,0
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	6 895 215,0	16 711 565,0	19 763 049,0

*2024-2025-yillarning yanvar-mart oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 042,5 mlrd soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 24,8 % ni tashkil etdi. 2025-yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 17,2 % ni tashkil etgan.



Sanoat ishlab chiqarishi boʻyicha uslubiy tushuntirishlar va metamaʼlumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini oʻzlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq isteʼmoli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmogʻi.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi boʻyicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni mahsulot turlari boʻyicha shakllantirish Xorazm viloyati iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (OʻzDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bugʻ va konditsiyalangan havo, suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yigʻish va qayta foydalanish boʻyicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat boʻyicha statistika maʼlumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) maʼlumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shugʻullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv maʼlumotlari; e) uy xoʻjaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʻzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʻrsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'inishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslar bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erfbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

U. Tadjimuratov
62 227-77-88 (9010)

Manzil:

